

## TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809435>

Berdiev Doston Abduvoitovich,  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
“Tasviriy san’at va amaliy bezak”  
yo’nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san’at darslarida yangi innovatsion texnologiyalardan nazariy va amaliy mashg’ulotlarda foydalanishning ahamiyati haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** uzluksiz ta’lim , intellektual, pedagogik intellekt, klaster, kasbiy ixtisoslashuv, grafik organayzer.

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan davlatlarini olmaylik, ta’lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san’at, xususan, tasviriy san’at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o’rta ta’limning yana o’n bir yillik bo’lishi va unda maktabning o’zida tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib 64 xil ishchi kasblarga o’rgatilishi ko’zda tutilmoxda. O’quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek maxsus san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga murojaatnomasida «Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

«Zakovat bor joyda ulug’lik bo’ladi,  
Bilim bor joyda buyuklik bo’ladi».

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o’qituvchi va murabbiylar bilan ko’proq muloqot qilib, o’quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo’yicha ular qo’ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak<sup>10</sup>» deb ta’kidladilar. 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb nomlanishi ham bejizga emas. O’zbekistonda olib borayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning sifatli ta’lim olishini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilagan. Bu esa yillar davomida uzluksiz davom ettirilishi yangi O’zbekistonning buyuk kelajagini bunyod qilishga qaratilgan istiqbolli rejalarimizni o’z ichiga oladi. Bular:

<sup>10</sup> O’zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga murojaatnomasi

- kadrlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni maorif, fan, texnika, texnologiya, madaniyat sohalarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko'rib chiqish masalasi ham belgilab o'tish;
- kadrlar tayyorlash jarayonini o'quv-dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta'minlashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari asosida ishlab chiqish;
- ta'lismizining barcha bosqichlarida o'quv jarayonining axborot bilan ta'minlanishini yuksaltirish;
- ta'lismiziga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash;
- sifatli ta'lismiz xizmatlari imkoniyatlarini oshirish;
- pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqoniksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti, turmush-tarzi, undagi o'zgarishlar atrof muhitdagi buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. Respublikamizning barcha ta'lismiz jabhalarida bo'lganidek, tasviriy san'at sohasi ustida anchagina izlanishlar olib borilgan. Ta'lismiz muassasalarida talabalarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta'lismiz berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda shubhasiz eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta'lismiz olish mumkin emas. Ta'lismiz jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlarini tasviriy san'atga bog'lash bilan shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va ijodiy tafakkurini amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Bunda esa uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi. Tasviriy san'at o'quv jarayonida mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta'lismiz texnologiyalari ("Ta'limga innovatsiya (STEAM)" loyihasi), interfaol metodlar (aqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (klaster, B-B-B chizmasi, «Nima uchun» chizmasi, «Qanday» diagrammasi va toifalash jadvali) kabi grafik organayzerlardan unumli foydalanish mumkin.<sup>11</sup>

Yo'nalishiga ko'ra talabalarning pedagogik intellekt darajasi hamda kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan turli metodik usullardan, nostandard testlardan foydalanish kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so'zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko'rinishida bo'ladi. Kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarda darsni tushunish, ma'lumotlarni tez qabul

<sup>11</sup> Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш / "Замонавий таълим" илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.;

qilishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, talabalardagi shaxsiy xislatlarini ham tarbiyalaydigan ijodiy faoliyatlarga jalg qilinadi. Tasvirli badiiy bezaklar ijodiy ruhiy muhitni yaratib, ularda muayyan madaniy-axloqiy xususiyatlar shakllana boshlaydi, dunyoqarashlari kengayadi. Kompyuterdagagi axborot almashish tamoyillari an'anaviy darsni tashkil etish bilab birgalikda uni qayta ko'rish imkoniyatlarini olib beradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san'at asarlarini keng va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylar va galereyalar bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish bilan real hayotdagidek ko'rish imkoniyatini beradi. Tasviriy san'at, adabiyot, musiqa va umuman olganda badiiy ijodkorlikda innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini amalda sinash talabalarning mashg'ulotlardagi faol ishtirokini jonlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limning o'zaro bog'liqligi talabalardagi bilim olish va san'atga qiziqishlarini oshiradi. Yangicha ta'lim usullari ta'sirida talabada keng fikrlash, yuqori izlanish, yangiliklar yaratish bilan uni asoslash, amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik hissi shakllanib, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug'ullanganda talabalardagi san'at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo'llanilishi zamonaviy talabaning assotsiativ fikrlashi, tasavvur qilishi hamda badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan tasviriy san'at darslari yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashda yetakchi o'rinni egallaydi.

Buni tushunib yetgan ko'plab pedagog-rassomlar tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid «mahorat darslari», jahondagi mashhur san'at muzeylariga sayohat, buyuk rassomlar asarlaridan iborat 3D videoroliklar namoyishi, grafik organayzerlar va nostandart testlardan foydalanishadi. Shu jumladan, pedagogning shaxsan o'zi kompozitsiya yaratish jarayonini amalda ko'rsatib, amaliy mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishiga erishmoqdalar.

Bundan tashqari, tasviriy san'at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- talabalarning idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi;
- ta'lim olish jarayonini samarali;
- qisqa vaqtida murakkab ishlar bajariladi;
- bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi;
- darsdan tashqari vaqtarda talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga yo'naltirishga sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Hayotimizdagi yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonida kompyuter vositalari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko'payib ketganligi, jamiyatdagi ilmiy-texnologik rivojlanish bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyat bosqichma-bosqichligini nazarda tutadigan innovatsion texnologiya bo'lajak mutaxassisni hayotiy hamda o'quv faoliyatini mustaqil ko'ra oladigan, unga kreativ yondasha oladigan faol, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratadigan zamonaviy jarayon hisoblanadi.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga samarali ta'sir etuvchi omillaridan biridir. Pedagogik innovatsiya - ta'lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat jihatdan yaxshilashni maqsad qiladi. Shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta'limni kompyuter grafikasi kabi o'quv jarayonida qo'llash imkonini oshiradigan innovatsion texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Taklif qilinayotgan tasvirni ko'rish bilan birga talabaning obrazli fikrashi materialni yaxlit qabul qilishiga bu katta yordam beradi. Ularda nazariy va ko'rgazmali materiallarni o'zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.

2. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш // “Замонавий таълим” илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.

3. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустаҳкамловчи омил //“Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами./ II том. Чирчиқ 2019. 443-444 б.

4. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат таълимида кластер ёндашуви таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш омили /Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi № 4-sonli respublikasi ko'p tarmoqli, ilmiy konferensiya// 22-dekabr 2022-yil 236-242 б.

5. Султанов Х.Э., Бойназарова Н.Х., Бердиев Д.А., Мирсоатова Л.Ў., Маматкаrimova M.T. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишининг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти //“Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari /may 1-qism CHIRCHIQ – 2022. 613-620 б.

6. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690

7. Бердиев Достон Абдуоитович, Султанов Хайтбай Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14

8. F. Bozorov. Ijodiy to'garaklarda yoshlarni tasviriy san'atdan tasvirlash malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi// "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor - 3.567 (SJIF) August 2022 / Volume 3 Issue - 8 pages – 130-137

9. Султанов Хайтбай Эралиевич, Алимова Нодира Шавкат қизи Zamonaviy ta'limda tasviriy san'atni o'qitish muammolari// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 13–18 p.

10. Имоматова У.М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадий тасаввурни ошириш // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE/ a collection of scientific works of the International scientific online conference (19th March, 2023) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2023. Part 12. Pages: 19-23.

11. Бердиев Достон Абдуоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўгаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.